

**O‘zbekiston Respublikasi
Sog‘liqni saqlash vazirligi**

2026-yil “21”-avgust
№ 04-17/QX

**O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirligi**

2026-yil “21”-avgust
№ 42-1123

**Sanitariya-epidemiologiya
osoyishtalik va jamoat
salomatligi qo‘mitasi**

2026-yil “21”-avgust
№ 08-21/10404

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi
sog‘liqni saqlash vaziri, viloyatlar
va Toshkent shahar sog‘liqni saqlash
boshqarmalari boshliqlariga**

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri,
viloyatlar va Toshkent shahar
maktabgacha va maktab ta’limi
boshqarmalari boshliqlariga**

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi,
viloyatlar va Toshkent shahar
sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va
jamoat salomatligi boshqarmalari
boshliqlariga**

O‘zbekiston Respublikasining “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga muvofiq pedagog xodimlarga davlat sog‘liqni saqlash muassasalarida bepul tibbiy ko‘rikdan o‘tish (davlat ta’lim muassasalari va tashkilotlari uchun) huquqi berilgan. Mazkur Qonunning 7-moddasida esa pedagog xodimlarning majburiyatlaridan biri sifatida majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘z vaqtida o‘tishi belgilangan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2012-yil 29-avgustda 2387-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan “Xodimlarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq umumta’lim maktablari, maktabgacha ta’lim tashkilotlari va boshqa muassasalarda bevosita bolalarga ta’lim yoki tarbiya berish bilan shug‘ullanuvchi pedagoglar hamda tegishli boshqa xodimlar tibbiy ko‘rikdan yilda kamida bir marta o‘tkazilishi nazarda tutilgan.

Ayni paytda yangi o‘quv yiliga tayyorgarlik jarayonida ayrim hududlarda pedagog va boshqa xodimlarni navbatdagi majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tkazishda tibbiyot muassasalari tomonidan turli miqdordagi to‘lovlar talab qilinayotgani va xodimlardan undirilayotgani to‘g‘risida murojaatlar kelib tushmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, qonunchilikda bepul tibbiy ko‘rikdan o‘tish huquqi belgilangan pedagog xodimlarning ushbu huquqlarini ta’minlash, shuningdek majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tishi lozim bo‘lgan boshqa xodimlarni amaldagi tartib asosida tibbiy ko‘rikdan o‘tkazishni o‘z vaqtida tashkil etish maqsadida Sizlardan quyidagilarni ta’minlashingiz so‘raladi:

1. Maktabgacha va maktab ta'limi hududiy bo'linmalari tomonidan tibbiy ko'rikdan o'tkazilishi lozim bo'lgan xodimlarning ro'yxatini tegishli ma'lumotlari bilan birga shakllantirish hamda tibbiy ko'rikni o'tkazuvchi davolash-profilaktika muassasalariga taqdim etish.

2. Davolash-profilaktika muassasalarida yangi o'quv yili boshlanguniga qadar xodimlarning belgilangan tartibda tibbiy ko'rikdan o'tishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish.

3. Qonunchilikka muvofiq bepul tibbiy ko'rikdan o'tish huquqiga ega pedagog xodimlardan tibbiy ko'rik uchun to'lov undirilishiga yo'l qo'ymaslik va ularning bepul tibbiy ko'rikdan o'tkazilishini ta'minlash.

4. Majburiy tibbiy ko'rikdan o'tishi lozim bo'lgan boshqa xodimlar bo'yicha tibbiy ko'rikni amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda tashkil etish.

5. Tibbiy ko'rik yakunlari bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan umumlashtirilgan va tasdiqlangan ma'lumotlarni joriy yilning 31 - avgustiga qadar Sog'liqni saqlash vazirligi hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga belgilangan tartibda taqdim etish hamda mazkur topshiriqlar ijrosini nazoratga olish.

**Sog'liqni saqlash vaziri
o'rinbosari**



Sh. Muxamedov

**Maktabgacha va maktab
ta'limi
vaziri o'rinbosari**



E. Komilov

**Sanitariya-epidemiologiya
osoyishtalik va jamoat
salomatligi qo'mitasi raisi**



B. Yusupaliyev